

## INNOVATIKA NUQTAI-NAZARIDAN QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQRISHNING TASHKILY-IQTISODIY O‘ZIGA XOSLIKLARI.

**Igamova Shaxinya Zikrilloyevna**

*Buxoro davlat universiteti dotsenti (PhD)*

**Annotatsiya.** *Maqolada Buxoro viloyatida qurilish materiallari sanoatini yanada rivojlantirish istiqbollari muhokama qilinadi. Shuningdek, uni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish zarurligi, uning yordamida ushbu tarmoq korxonalarini modernizatsiya qilish va qurishni amalga oshirish mumkinligi haqidagi masalalar ham ko‘rib chiqildi. Buxoro viloyatida bajarilgan qurilish faoliyatining asosiy hajmlari dinamikasi tahlil qilinadi.*

**Tayanch so‘zlar:** *investitsion jarayon, qurilish materiallari, innovatsiya, ishlab chiqarish strategiyalari, asosiy kapitalqurilish qorishmalari, dinamika*

Iqtisodiyotda innovatsiyalarning turli jihatlari va innovatsion rivojlanish muammolari, shu jumladan, innovatika fani elementlari K.Allen, D.D.Bell, P.Druker, N.Mazur, R.Nelson, R.Fatxuddinov, S.Radosevich va boshqa bir qator tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida aks etgan .

Y.Shumpeter iqtisodiy o‘shishning innovatsion rivojlanishi konsepsiyasini shakllantiruvchi makroiqtisodiy modellar mexanizmlarini o‘rganish sohasidagi o‘z ilmiy ishlari bilan mashhurdir.

Ko‘rib chiqilayotgan ilmiy yo‘nalishda mamlakatimiz olimlaridan Sh.N.Zaynutdinov, M.A.Ikramov, L.M.Abdullayev, K.I.Kupriyanidi M.A.Maxkamova, A.Sh.Bekmurodov, B.B.Berkinov, G.Yuldashev, B.K.Goyibnazarov, Y.A.Alimov, R.Alimov, R.I.Nurimbetov, B.Kalmuratov va boshqalar faol izlanishlarni olib bormoqdalar . Ularning tadqiqotlari ilm-fan va amaliyotga muhim ilmiy-metodik hissa qo‘shadi.

Hozirgi vaqtda innovatsion faoliyatni rivojlantirish, bu jarayon samaradorligining o‘shishi, boshqaruvning innovatsion metodlarini va innovatsion klasterli texnologiyalardan foydalanishni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar hali yetarlicha keng tarqalmagandir. Buxoro viloyatidagi qurilish materiallari korxonalari faoliyatning natijalari tahlili ko‘rsatadiki, innovatsion rivojlanish salohiyati yetarlicha to‘liq o‘rganilmagan va undan foydalanilmagan. Mazkur dalil ko‘rib chiqilgan korxonalarining innovatsion rivojlanishini faollashtirish bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazilishi zarurati haqida xulosa chiqarishga imkon beradi. Hisoblaymizki, buni mustaqil tadqiqotning obyekt sifatida qabul qilish lozim. Aynan mana shu jihat mazkur dissertatsiya ishi mavzusining tanlab olinishiga xizmat qildi.



Tadqiqot jarayonida viloyatdagi qurilish materiallari sanoati korxonalarida innovatsion jarayonlar samaradorligini oshiruvchi mintaqaviy axborot-tahliliy platforma tuzilmasi ishlab chiqilgan;

qurilish materiallari korxonalarining innovatsion faoliyatini faollashtirishning ahamiyati va tutgan o'ri belgilangan;

mintaqadagi qurilish materiallari sanoati korxonalarining innovatsion jarayoni samaradorligini oshirish bo'yicha metodik materiallar shakllantirilgan va o'z ichiga innovatsion-ishlab chiqarish klasterini tashkil etish, innovatsion-tahliliy platformani shakllantirish, biznes-loyihalarni boshqarish metodini qo'llash va korxonalarni innovatsion rivojlanish sohasida quvib yetuvchi strategiyadan ilgarilanma strategiyaga o'tishga yo'naltirish orqali innovatsion mahsulotlar bilan ishlashning samarali reglamentini shakllantirishni oluvchi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmning asosiy qoidalari shakllantirilgan;

mintaqada bajarilgan qurilish ishlarining real qiymati modeli yordamida prognoz qiymatlari va 2022–2026-yillarga mo'ljallangan qurilish-montaj ishlari real qiymatining prognoz ko'rsatkichlari, shuningdek, tarmoq mahsulotlarini eksport qilishning ijobiy istiqbolli trendi ishlab chiqilgan.

Ilmiy maqolada ko'tarilgan muammoni atloflicha tahlil qilish, tahlil natijalarini tizimlashtirish asosida ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishda induksiya va deduktsiya, taqqoslash, adabiyotlar sharhi, miqdor va sifat ko'rsatkichlar hisoblash, maqsadli rivojlantirish kabi usullardan foydalanildi.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillik yillarida aholi punktlari va infra tuzilma qiyofasi sezilarli ravishda o'zgardi, ko'plab nodir obyektlar qurildi, yangi nufuzli va katta quvvatga ega ishlab chiqarish majmualari ishga tushirildi.

Bugungi kunda butun mamlakat bo'ylab yangi sanoat obyektlarini barpo etish va ishlab turganlarini rekonstruksiya qilish, uy-joy, ta'lim, tibbiyot va boshqa ijtimoiy-maishiy yo'nalishlardagi obyektlarni quriish ishlari keng uo'lamda olib borilmoqda. Shubhasizki, bunday natijalar ko'p jihatdan mazkur obyektlarning sifatli qurilish materiallari bilan ta'minlanishiga bog'liq bo'ladi.

Bugungi kunda nafaqat ichki qurilish bozorining asosiy qurilish materiallariga bo'lgan talabi qondirilmoqda, balki ko'plab miqdorlarda eksport ham qilinmoqdadir.

Shubhasizki, investitsion jarayonda va umuman respublika iqtisodiyotini rivojlantirishda, jamiyat farovonligini oshirishda qurilish alohida o'rin tutadi. Yalpi ichki mahsulotda iqtisodiyot rivojlanishi sur'atlariga bog'liq holda 10 % gacha sezilarli ulushga ega bo'lish bilan birga qurilish iqtisodiyotning strategik muhim tarmoqlariga ularning ham qurilishi va bu tarmoqlar tuzilmasini yaratish bilan ularning tobora oshib borayotgan xizmatlaridan foydalangan holda kelgusi rivojlanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyoti yuqori va barqaror sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Eslatib o'tamizki, YalM ning yillik o'sishi 2021 yilda 4,5 % ni tashkil etdi. Bunda qurilish va qurilish materiallari sanoatining hissasi katta bo'ldi.

Shubhasizki, yuqorida ko'rsatib o'tilgan ko'rsatkichlarga erishilishida davlat tomonidan qurilish materiallar ishlab chiqarish sanoatining rivojlanishini qo'llab-quvvatlash ham juda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Tarmoqda "O'zsanoatqurilishmateriallari" AJ uyushmasiga katta ahamiyat beriladi, uning tarkibida yirik, kichik va o'rta biznesga mansub bo'lgan 130 dan ortiq korxonalar faoliyat yuritib, ular bugungi kunda 180 turdan ortiq qurilish materiallarini ishlab chiqaradilar.

Ta'kidlab o'tamizki, uyushma korxonalari respublikamizning barcha mintaqalarida joylashgan va ma'lum bir ma'noda qurilish materiallarini ishlab chiqarish bo'yicha zamonaviy ishlab chiqarishi faoliyatining namunasi bo'lib hisoblanadi.

Ekologik toza, uzoq muddatlarga mo'ljallangan, samarali, energiya tejamkor qurilish materiallarini yaratish bo'yicha jahon amaliyoti tendensiyalariga mos holda uyushma korxonalari tomonidan bunday materiallarni ishlab chiqarishga, raqobatbardoshlikning yuqori darajasiga erishish uchun innovatsion jarayonlarga alohida diqqat qaratilmoqda.

So'nggi yillarda uyushma korxonalari va respublikadagi boshqa korxonalar tomonidan qurilish materiallarning zamonaviy turlaridan 60 dan ortiq xillarini ishlab chiqarish o'zlashtirildi.

Shu bilan birgalikda, Buxoro viloyati bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarni jalb qilish ko'rsatkichlarining o'sishi sur'atlari ham turlicha xususiyatlarda bo'lgandir. Misol uchun, o'rganilayotgan davrning dastlabki bir necha yillarida asosiy kapitalga investitsiyalar kiritish viloyat bo'yicha umumrespublika ko'rsatkichlaridan ortda qolib kelgan edi. Biroq, so'nggi yillarda, aniqrog'i, 2020-2022 yillarda viloyatda investitsiya dasturlariga e'tiborning kuchaytirilishi natijasida bu borada o'sish jarayonlari kuzatiladi.

Shubhasizki, investitsion loyihalarni amalga oshirish, qurilish hajmlarining dinamik ravishda o'sishini ta'minlashga qurilish materiallari korxonalari ko'rinishidagi mos holda bo'lgan ishlab chiqarish asoslarining, kadrlar salohiyati bilan ta'minlanganlik mavjudligisiz erishish mumkin emasdir. Hozirgi vaqtda mazkur tarmoqning samaradorligini oshirish masalasi kun tartibiga qo'yilgan bo'lib, bu tarmoqni ayrim mahalliy iqtisodchilarimiz O'zbekiston milliy iqtisodiyotining "lokomotivi" deb hisoblaydilar .

Ta'kidlab o'tamizki, 3931 ta sanoat korxonalari holatining tahlili ko'rsatishicha hozirgi vaqtda 677 ta korxonada ekspluatatsiyaga tushirilmagan, o'z faoliyatini to'liq holda yoki vaqtinchalik to'xtatgan, ishlab chiqarish hajmini kamaytirib yuborgan yoki budjetga soliq tushumlarini qisqartirgandir. Mazkur muammolar sabablarining tahliliga ko'ra 128 ta korxonada o'z aylanma mablag'larini to'ldirish yoki texnologik qurilmalarni



sotib olish uchun kredit resurslarini olishda murakkabliklarga duch kelgan, 75 ta korxonada muhandislik kommunikatsiyalariga ulanishda muammolarga ega, 25 ta korxonada ishlab chiqarish uchun xom-ashyo zahiralari ega emas, 12 ta korxonada debitorlik qarzlarni undirib olish ehtiyojiga duch kelmoqda, 7 ta korxonada esa qo'shilgan qiymatga soliqning oldindan to'langan miqdorlarini qaytarib olishda yordam ko'rsatilishiga muhtojdir. Tadbirkorlar yer maydonlarini olishda, zarur bo'lgan ruxsatnoma va litsenziyalarni, xalqaro sertifikatlarni rasmiylashtirishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda, xorijiy buyurtmachilarning yo'qligi, O'zbekistonga import qilinadigan qurilmalarning yetkazib berilishi va xorijiy mutaxassislarni jo'natish bilan bog'liq muammolar girdobida qolib ketganlar.

Bu yerda Buxoro viloyati hududida quyidagi ishlab chiqarishlarning mavjudligini ta'kidlab o'tish zarur bo'ladi: quruq aralashmalar ("Buxorogips" AJ QK, «Gizamiks» QK, "New live builds" MChJ, "Dry-mix technologies" MChJ), gipsokarton ("Plattas" ShK, ("Buxorogips" AJ QK, "BRAUS", "ROYaL", «Belona Millenium» QK), devor va shift uchun plastik panellar («Dekorimeks» QK), alyuminli-plastikli kompozit panellar – «alyukobond» («Alyubond Roycon Bilding Texnologijiz» ShK, «And-Polic» QK), alyuminiyli radiatorlar («Dekorimeks» QK), laminatsiyalangan parket («Fayz Xomar GUC» QK, "Temur-Chin" QK), keramik cherepitsa (QK «Aziya payns keramik», «Muratbek» XK), gidro izolyatsion tom yopma materiallari («Ales» QK) va boshqalar.

Yangi qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini yaratish ahamiyatini ortib borishi shundan kelib chiqadiki, bunga ko'ra hozirgi vaqtda bir tomondan tiklanmaydigan resurslarning taqchilligi kuchayib bormoqda, ularni qazib olish va qayta ishlash sarf-xarajatlari oshib ketmoqda, ikkinchi tomondan esa energiya tashuvchilar narxining sezilarli ravishda ortishi kuzatilmoqda. Bunda eng oxiri bo'lib ko'rsatilgan omilning dolzarbligi yuqoridir, sababi ko'plab qurilish materiallarini ishlab chiqarishda ko'p energiya talab etadigan texnologik jarayonlardan foydalaniladi va bu katta miqdordagi energiya to'lovlari bilan bog'liq bo'ladi.

Yangi qurilish materiallarini yaratish sohasidagi hozirgi davr tadqiqotlari ishlab chiqarilishida sarf-xarajatlarni bir vaqtning o'zida qisqartirilishi bilan birga yuqori iste'molchilik ko'rsatkichlariga ega bo'lgan samarali materiallarni yaratish maqsadini ko'zlaydi. Bunda tadqiqotchilar eng ilg'or metodlar va texnologiyalardan, shu jumladan. Xom-ashyo manbalaridan foydalanadilar.

Yangi qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini yaratishning hozirgi davrdagi o'ziga xosligi shundan iboratki, bu materiallar ko'pincha an'anaviy materiallardan farqli o'laroq sifat jihatidan yangi iste'molchilik xossalari ega bo'ladi. Bu omil iqtisodiy samaradorlikni aniqlash nuqtai-nazaridan prinsipial ahamiyatga egadir, chunki yangi ishlanmalarning endilikda mavjud bo'lganlari bilan taqqoslanishini sezilarli ravishda murakkablashtiradi.

«O'zsanoatqurilish materiallari» AJ uyushmasining rivojlanishi tadbiriq qilinayotgan tarmoq rivojlanishida aks etadi va shuning uchun ham tarmoqda mahsulot ishlab





chiqarish hajmini 27,6 trln so‘mga oshirish ko‘zda tutilgan. Mahalliyashtirish dasturi doirasida umumiy qiymati 950 mlrd so‘mga yetgan bo‘lgan 17 ta loyihalar bo‘yicha qurilish materiallarini ishlab chiqarish rejalashtirilgan. Bu kutilayotganidek, ularning 86 mln dollarga teng qismini import qilishni qisqartirishga imkon beradi.

Eng asosiysi, 2022 yilda investitsiyalar yo‘nalishida hambosqichma-bosqichli ishlar amalga oshirildi. Xususan, butun tarmoq bo‘yicha 1,4 mlrd dollarlik xorijiy investitsiyalar o‘zlashtirildi, ularning 1,16 mlrd dollarlik qismi to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarga tegishlidir.

Bu mablag‘lar hisobiga jami qiymati 369,4 mln dollar bo‘lgan 12 ta loyiha ishga tushiriladi. Xususan, quyidagi yo‘nalishlarda korxonalar tashkil etiladi:

- 1,8 mln t sement klinkeri;
- 29 mln kv-m keramik plitalar;
- 1,1 mln t sement;
- 850 min kub-m gazobeton bloklari;
- 300 ming kv-m marmar kompozit plitalari;
- 3,5 ming t vintli mixlar;
- 50 ming t temir-beton buyumlari va asfalt;
- 2,8 mln kv-m keramik plitalar va frizlar.

Shu bilan birga, 2022 yilda qiymati 600 mln dollarga teng bo‘lgan qurilish materiallari eksport qilindi: sement – 461 ming t (20 mln dollar); 80 mln dollarga PVX-profil, trubalar va plastmassa buyumlari; 30 mln dollarga quruq qurilish aralash malari va sementli buyumlar; 15 mln dollarlik qurilish xizmatlari va boshqa qurilish materiallari.

“O‘zsanoatqurilish materiallar” uyushmasining ma’lumotlariga ko‘ra, 2021 yilning o‘zida 24,2 trln so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan: ularga 28 mln kv-m qurilish shishasi, 15,4 mln t sement, 22 mln kv-m keramik plitalar, 2,6 mln rulon gulqog‘ozlar, 68 mln kv-m gipsokarton ishlab chiqarish kiradi.

Qurilish mahsulotlari eksporti 2021 yilda 400 mln dollarni tashki etdi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida 17 turdagi 1,2 trln so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Bunda O‘zbekistonning qurilish sohasidagi asosiy sheriklaridan biri bo‘lib Rossiya sanalmoqda.

Ta’kidlash lozimki, hozirgi vaqtga kelib Germaniyaning Knauf Internatsional GmbH kompaniyasi Kogon shahrida qiymati 50, 0 mln dollar bo‘lgan gipsokarton ishlab chiqarish bo‘yicha zavod qurilishini yakunlagan, bu loyiha mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirish va uning jozibadorligini oshirishga mo‘ljallangan yangi investitsion loyihalar qatoriga kiradi.

Hukumat tomonidan Buxoro viloyatida qurilish materiallarini ishlab chiqarish sanoatini jadal rivojlantirishi bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. Buning ustiga hukumat mahalliy foydali qazilmalarni qayta ishlash sohasiga ham investitsiyalar



kiritishni koʻzda tutib, klaster metodi bilan raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish va ularni eksport qilishni moʻljallamoqda.

Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Buxoro viloyati hokimligi va “Oʻz sanoatqurilish materiallar” uyushmasi qurilish materiallarini ishlab chiqarish sohasini innovatsion rivojlantirish boʻyicha quyidagi vazifalarni hal qilish bilan faol ravishda shugʻullanmoqdalar:

- dolomit, gips va boshqa xom-ashyolarni qazib olish, qurilish materiallarining yangi turlarini ishlab chiqish;
- marmar va granit konlarini qayta ishlash, zamonaviy dekorativ qoplama toshlarni, shu jumladan, mozaika ishlab chiqarish, marmar va granit plitalarni ishlab chiqarish;
- mineral boʻyoq beruvchi oxrani qazib olish va undan tayyor buyumlar – boʻyovchilar, mineral toʻldiruvchilar va boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarish;
- qum-tosh aralashmasi konlarini qayta ishlash, navga ajratish-maydalash quvvatlarini barpo etish va tayyor temir-beton buyumlari, asfalt hamda inert materiallar (qum, shagʻal)dan yoʻl-qurilish materiallarini ishlab chiqarish.

Bundan tashqari, aytib oʻtilgan tuzilmalar tomonidan 2022-2023 yillarga qurilish materiallarini ishlab chiqarish sohasidagi investitsion loyihalarning manzilli roʻyxati tuzib chiqilgan.

#### Xulosa va takliflar

Tarmoq oldiga qoʻyilgan vazifalarning bajarilishi Oʻzbekiston Respublikasi qurilish materiallari sanoatining samaradorligini keskin oshirish, innovatsion jarayonlarni faollashtirish, yangi ish joylarini yaratish, eksport salohiyatini oshirishni talab qiladi.

Mana shular bilan bir qatorda mazkur bobda amalga oshirilgan tahlil asosida aniqlandiki, tadqiq qilinayotgan mintaqada uglevodorodlarni ham ham oʻz ichiga olgan turli xildagi foydali qazilmalarning katta konlariga ega, transchegaraviy joylashuvni egallagan va mamlakatning muhim sanoat markazlaridan ancha uzoqda joylashgandir. Bu innovatsion rivojlanishning dolzarbligiga taʼsir koʻrsatadi va ichki zahiralarni hamda resurslarga tayanish zarurligini anglatadi.

Bobda aniqlandiki, mintaqaning qurilish materiallarini ishlab chiqarish sanoati koʻpchilik parametrlar (mahsulot ishlab chiqarish hajmlari, uning sifati, xom-ashyo salohiyatidan foydalanish darajasi, energiya sigʻimi, mahsulot narxi, shuningdek, tarmoq korxonalarining joylashuvi) boʻyicha hozirgi davr talablariga yetarlicha javob bera olmaydi.

Koʻrsatib oʻtilganlardan tashqari aniqlandiki, tadqiq qilinayotgan tarmoq mahalliy oʻziga xoslikka egadir: bularga mahsulotni isteʼmol qilish joylaridan (xususan, sanoat qurilishining yirik tugunlaridan) korxonalarining uzoq masofada joylashganligidan iborat ichki logistikaning murakkabligi, mahsulotni eksport qilish uchun keng transport koridorlarining mavjud emasligidan iborat boʻlgan omillar kiritilishi mumkin.



Ta'kidlab o'tish lozimki, qurilish materiallarini ishlab chiqarish uchun keng doiradagi foydali qazilmalarning mavjudligi mintaqada hududida yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil etishga imkon berib, bu ish joylari sonining ortishi va mahsulot eksporti rivojlanishida aks etdi. Shu bilan birga, mintaqada innovatsion faollikning o'sish istiqbollari baholash uchun amalga oshirilgan SWOT-tahlil mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligini tasdiqlab, qurilish materiallari korxonalarini uchun aniqlangan innovatsiyalar turlari va ularning tasnifiy belgilari tarmoqning samarali innovatsion rivojlanishi o'sishiga xizmat qiladi.

Bu tahlil quyidagi kamchiliklarni ham ko'rsatdi: korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi pastligi, korxonalarining noratsional dislokatsiyasi (zich qurilish markazlaridan uzoqda joylashganlik, ishlab chiqarishning yetarli bo'lmagan texnologik darajasi, xom-ashyo salohiyatidan to'la foydalanmaslik va mahsulotning tor nomenklaturasi).

Tarmoqning innovatsion rivojlanishidagi kuchli tomonlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi: qurilish hajmlarining barqaror o'sish tendensiyalari mavjudligi; tarmoqning rivojlangan xom-ashyo bazasi mavjudligi; tarmoq rivojlanishini mahalliy va markaziy davlat organlari tomonidan qo'llab-quvvatlash; mintaqada yirik ta'lim muassasalari va kadrlar ta'minoti o'sishi salohiyatining mavjudligi.

Buxoro viloyati qurilish materiallari sanoatining innovatsion rivojlanishi omillarini belgilash uchun tadqiq qilinayotgan sohasining samarali rivojlanishi uchun klasterli yondashuvdan foydalanish va iqtisodiyotning raqamlashtirilishini ham o'z ichiga oladigan hozirgi davr voqealarini hisobga olish bilan samarali tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni shakllantirish zarurligi aniqlandi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. -Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2020. -B. 23.
2. Birlashgan millatlar tashkiloti (sanoatni rivojlantirish bo'yicha) - <https://www.unido.org/sites/default>
3. Игамова Ш.З. Перспективы дальнейшего развития промышленности строительных материалов //Агроиктисодиёт илмий-амалий агроиктисодий журнал, 2021 йил
4. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi [Elektron manba]. – <http://www.stat.uz>.
5. Зайнутдинов Ш. Н., Нурымбетов Р. И. Ресурсная база и потенциал производство Узбекистана: использования и эффективность (региональный аспект) // Бюллетень науки и практики. Электрон. журн. 2017. №10 (23). С. 207-



212. Режим доступа: <http://www.bulletennauki.com/zaynutdinov> (дата обращения 15.10.2017)

6.Строительство в Узбекистане. Статистический сборник. / Государственный комитет Республики Узбекистан по статистике. Ташкент, 2022.

7.Фатхутдинов, Р.Ф. Инновационный менеджмент / М., 2016.